



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING
YANGI BOSQICHI:
ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA
ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

1. B.B. Ma'murov – Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais;
2. Z.M. Muqimov – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini;
3. G.R. Akramova – Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo;
4. X.A. Xaitov – Tillar fakulteti dekani, a'zo;
6. U.S.Amonov – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo;
7. D.B.Axmedova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo;
8. G.B.Rustamova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;
9. G.R.Mirxanova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;
10. R.A.Saidova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo;
11. Y.U.Nurova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;
12. Sh.Sh.Nizomova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;
13. N.H.Hojiyeva – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;
14. M.U.Usmonova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo;
15. N.A.Bafoyeva – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo;
16. N.O. Avazova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo;
17. S.T. Latipova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo

ILMIY ANJUMANNING TASHKILY QO'MITASI

1. M.M. Bafayev – O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais;
2. M.L. Umedjanova – Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini;
3. U.S. Amonov – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo;
4. F.R.Rustamov – Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari
5. L.F. Sharipova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo;
6. M.Y. Ro'ziyeva – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo;
7. Sh.M. Istamova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;
8. M.B. Sharipova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;
9. G.B. Rustamova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;
10. R.R. Xalilova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;
11. M.U. Usmonova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo;
12. F.K. Nurova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo;
13. N.N. Mirjonov – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo;
14. M.Y. Latifova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo;
15. M.A. Tilavova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo;
16. M.V. Jabborova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo.

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollari" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor

F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

OBJEKT VA SUBYEKT MUNOSABATLARINING MAZMUNY XUSUSIYATLARI: O'ZBEK TILI MATERIALLARI ASOSIDA LINGVISTIK TAHLIL

Matkarimova Barno Xabibullayevna
TTAUF Ingliz tili kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: maqolada o'zbek tilidagi subyekt va obyektning o'zaro munosabatlari sintaktik, semantik va pragmatik darajalarda o'rganiladi. Ularning gapdagi funksional o'rni, fe'ning valentligi, tematik rollari, nutqning axborot strukturadagi taqsimoti va kontekstual moslashuvchanligi lingvistik tahlil objekti sifatida ko'rib chiqiladi. Ushbu munosabatlar boshqa tipdagi tillar bilan taqqoslanib, o'zbek tilining o'ziga xosliklari yoritiladi.

Kalit so'zlar: subyekt, obyekt, valentlik, sintaksis, semantika, pragmatika, agentlik, tema-rema, aktant, o'zbek tili.

Abstract: The article studies the relationship between the subject and the object in the Uzbek language at the syntactic, semantic and pragmatic levels. Their functional role in the sentence, the valence of the verb, thematic roles, their distribution in the information structure of speech and contextual flexibility are considered as objects of linguistic analysis. These relationships are compared with other types of languages, and the specific features of the Uzbek language are highlighted.

Keywords: subject, object, valence, syntax, semantics, pragmatics, agency, theme-rheme, actant, Uzbek language.

Аннотация: В статье исследуются взаимоотношения субъекта и объекта в узбекском языке на синтаксическом, семантическом и прагматическом уровнях. В качестве объектов лингвистического анализа рассматриваются их функциональная роль в предложении, валентность глагола, тематические роли, их распределение в информационной структуре речи и контекстуальная гибкость. Эти взаимоотношения сопоставляются с другими типами языков и выделяются специфические особенности узбекского языка.

Ключевые слова: субъект, объект, валентность, синтаксис, семантика, прагматика, агентность, тема-рема, актант, узбекский язык.

Kirish. Tilshunoslikda gapning mazmuniy va tuzilmaviy asoslarini tashkil etuvchi elementlar orasida subyekt va obyekt alohida ahamiyatga ega. Bu birliklar orqali harakat yo'nalishi, agentlik darajasi, semantik bog'liqlik, va gapning axborot markazi belgilanadi. O'zbek tili kabi agglutinativ va erkin so'z tartibiga ega tillarda subyekt va obyektning aniqlanishi, joylashuvi va o'zaro aloqasi ko'p jihatdan morfologik vositalar, valentlik modeli hamda kontekstual ahamiyat bilan belgilanadi.

Mazkur maqolada o'zbek tili materiallari asosida subyekt va obyekt munosabatlari ko'p darajali yondashuv asosida (sintaksis, semantika, pragmatika) tahlil qilinadi hamda boshqa tillar bilan tipologik qiyosiy kuzatishlar asosida boyitiladi.

Adabiyotlar sharhi. Subyekt va obyekt munosabatlari masalasi tilshunoslikda qadimdan o'rganib kelinadi. G'arbiy tilshunoslikda bu masala tematik rollar, agentlik, valentlik doirasida tahlil qilinadi [Comrie, 1981; Van Valin, 2005]. O'zbek tilshunosligida esa bu munosabatlar asosan gap bo'laklari va fe'ning talab etuvchi birliklari sifatida ko'riladi [Qodirov, 2010; Karimov, 2012].

Tursunov fe'ning valentlik qobiliyatini o'rganar ekan, har bir fe'l subyekt va obyekt bilan qanday sintaktik va semantik munosabatga ega ekanini chuqur tahlil qiladi. Karimov esa bu birliklarning axborot oqimidagi (tema-rema) vazifasiga urg'u beradi.

Subyekt va obyektning sintaktik strukturadagi o'rniga to'xtaladigan bo'lsak, o'zbek tilida oddiy holatda subyekt fe'ning bajaruvchisi sifatida asosiy kelishikda, obyekt esa tushum kelishigida ifodalanadi: *talaba maqolani yozdi /o'qituvchi darsni tushuntirdi.*

Gapda subyekt odatda bosh joyda keltiriladi, ammo kontekstda pragmatik ustuvorlikka ega obyektlar ham boshlanishga chiqishi mumkin: *Maqolani talaba yozdi.* (obyekt-pragmatik yangilik)

O'zbek tilida subyekt va obyektning joylashuvi erkinlikka ega, ammo bu morfologik ko'rsatkichlar orqali to'g'rilanadi. Bu jihat uni so'z tartibiga qat'iy bog'liq tillardan (masalan, ingliz tili) ajratib turadi.

Semantik rollar quyidagi ko'rinishda aks etadi: Agent, patiyens, benefaktiv. Fe'l atrofida subyekt va obyekt semantik rollarga ega:

Agent (harakatni bajarayotgan shaxs): *Talaba maqola yozdi.*

Patiyens (harakat ta'sirida bo'lgan obyekt): *Maqola yozildi.*

Benefaktiv (foydalanuvchi shaxs): *U menga sovg'a yubordi.*

Bu rollar tematik rol yoki aktant rollar deb yuritiladi va fe'lning semantik tuzilmasiga asoslanadi. Bitta fe'l turli valentliglikda bo'lishi mumkin: *Bola kuldi.* (bir valentli) / *Bola qalamni sindirdi* (ikki valentli) / *Bola opasiga xat yozdi* (uch valentli).

Pragmatik struktura tema va rema munosabatidan iborat. Gapning axborot strukturasida subyekt ko'pincha tema (mavzu), obyekt esa rema (yangilik) funksiyasini bajaradi:

– *Nima bo'ldi?*

– *Maktab yopildi.* (subyekt = yangilik)

– *Kim maktabni yopdi*

– *Rahbariyat yopdi.* (subyekt = rema)

Bu o'rinda intonatsiya, so'z tartibi va kontekst muhim ahamiyatga ega. Nutqda axborot oqimini to'g'ri tashkil etish, subyekt va obyektning funksional joylashuviga bog'liq bo'ladi.

Xulosa. Subyekt va obyekt o'zbek tilining sintaktik va semantik tizimida asosiy bo'laklar sifatida markaziy o'rin tutadi. Ularning o'zaro munosabati nafaqat grammatika, balki nutqning mazmuniy va kommunikativ samaradorligini ham belgilaydi. O'zbek tilida bu munosabatlar valentliglik, agentlik va pragmatik intonatsiya bilan chambarchas bog'liq. Tillararo qiyosiy kuzatishlar subyekt-obyekt munosabatlarining universalligi bilan birga har bir tilga xos tipik xususiyatlarni ham ochib beradi.

Tavsiyalar. Subyekt va obyekt munosabatlarini o'rganishda fe'lning valentliglik modeli markaziy mezon sifatida ishlatilishi kerak. O'quv materiallari yaratishda axborot strukturasiga urg'u berib, tema-rema asosidagi mashqlar taklif etilishi mumkin. Lingvistik tadqiqotlarda tilshunoslikning sintaktik, semantik va pragmatik darajalari kompleks o'rganilishi lozim. Qiyosiy tadqiqotlar orqali o'zbek tilining tipologik o'ziga xosliklari chuqurroq yoritilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Comrie B. *Language Universals and Linguistic Typology.* – Oxford: Blackwell, 1981.
2. Karimov B. *O'zbek tilining sintaksisi.* – Toshkent: "Fan" nashriyoti, 2012.
3. Qodirov H. *Hozirgi o'zbek adabiy tili grammatikasi.* – Toshkent: O'qituvchi, 2010.
4. Tursunov A. *Fe'l va uning valentliglik xususiyatlari.* – Samarqand: Imkon, 2017.
5. Van Valin. *Exploring the Syntax-Semantics Interface.* – Cambridge: University Press, 2005.